

“XXI asr – intellektual yoshlar asri” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o’tkazildi

O’zR FA Materialshunoslik institutida “XXI asr – intellektual yoshlar asri” mavzusida respublika yosh olimlar ilmiy va ilmiy-texnik anjumani o’tkazildi.



Mazkur anjuman O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O’zR FA Yosh olimlar kengashi, O’zR FA Birlashgan kasaba uyushma qo’mitasi hamkorligida tashkil etildi.

Anjumanni O’zR FA prezidenti, akademik B.Yuldashev ochib berdi va anjuman ishiga omad tiladi. Shundan O’zR FA bosh ilmiy kotibi G’. Bahadirov so’zga chiqdi hamda FA Yosh olimlar kengashi tomonidan olib borilayotgan ishlarga to’xtalib o’tdi.



Tadbir boshlanishida 2021-yilda karantin sababli onlayn o'tkazilgan Yosh olimlar tanlovi g'oliblari taqdirlandi va ularga diplom, estalik sovg'alari topshirildi.



Anjuman ishi ochilish va plenar (umumiyl) yig'ilish hamda "Fizika-matematika va texnika fanlarining dolzarb muammolari", "Tabiiy fanlarning dolzarb muammolari", "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" nomli uchta sho'balarda olib borildi va yosh olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiytadqiqot natijalari muhokama qilindi.

Anjuman yakunida Ishchi guruhga kelib tushgan materiallar va ma'ruzalar tanlab olinib yosh olimlar "Eng yaxshi maqola", "Eng yaxshi maqola" nominatsiyasi bo'yicha diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.